



Shuxratjon TURG'UNOV,
Toshkent to 'qimachilik va yengil sanoat instituti tayanch doktoranti
E-mail: Shuhratturgunov98@gmail.com
Xushnuda SAMIGOVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti professor, f.f.d.

O'zDJTU, PhD T. Madrahimov taqrizi asosida

SALBIY EKSPRESSIVLIK: HAQORATLASHNING TILSHUNOSLIK TAHLILI

Аннотация

Haqoratlash nutqi, tinglovchining hissiy holatiga ta'sir qilish maqsadida ishlatilgan salbiy yoki haqoratomuz so'zlar bilan amalga oshiriladi. Turli madaniy va ijtimoiy kontekstlarda haqoratlashning ko'p qirrali namoyon bo'lish shakllari mavjud bo'lib, bu xususiyatlar har xil til birliklari orqali ifodalangan. Tilshunoslik sohasida, bu jarayon atroflicha va sistemali ravishda tahlil qilinadi. Mazkur ish haqoratlashning ijtimoiy va lingvistik oqibatlarini chuqur o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, turli tillar va madaniyatlardagi namoyon bo'lish xususiyatlarini solishtirib beradi.

Kalit so'zlar. Haqorat, so'kish, g'azab, obro'sizlantirish.

НЕГАТИВНАЯ ЭКСПРЕССИВНОСТЬ: ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ОСКОРБЛЕНИЙ

Аннотация

Речь, содержащая оскорбления, используется для воздействия на эмоциональное состояние слушателя с помощью негативных или уничижительных слов. В различных культурных и социальных контекстах проявляются многоаспектные формы оскорбительной речи, которые выражаются через различные языковые единицы. В области лингвистики этот процесс подвергается подробному и систематическому анализу. Данная работа посвящена глубокому изучению социальных и лингвистических последствий оскорбительной речи, сравнивая её характеристики в различных языках и культурах.

Ключевые слова: Оскорбление, ругательство, гнев, дискредитация.

NEGATIVE EXPRESSIVENESS: LINGUISTIC ANALYSIS OF INSULTING SPEECH

Annotation

Insulting speech is used to affect the emotional state of the listener, using negative or derogatory words. Various cultural and social contexts exhibit multifaceted manifestations of insulting speech, which are expressed through different linguistic units. In the field of linguistics, this process is analyzed in detail and systematically. This work is dedicated to a deep investigation of the social and linguistic consequences of insulting speech, comparing its characteristics across different languages and cultures.

Key words: Insult, swearing, anger, disrepute.

Kirish. Haqoratlash, nutqning bir shakli sifati bo'lib, bu tinglovchining hissiy holatiga ta'sir o'tkazish maqsadida, ko'pincha salbiy yoki haqoratomuz so'zlar yordamida amalga oshiriladi. Haqoratlashning asosiy maqsadi - bir shaxsni yoki guruhni obro'sizlantirish, ularga nisbatan hurmasizlik bildirish yoki ularga zarar yetkazishdir. Haqoratlash asosan hissiyotlarga ta'sir o'tkazish uchun ishlatiladi. Bu, masalan, g'azab, nafrat yoki kamsitish hissiyotlarini keltirib chiqarishi mumkin. Ekspressiv til vositalari orqali nutq beruvchi o'z hissiy holatini ifodalaydi va tinglovchini ma'lum bir tarzda his qilishga majbur qiladi.

Haqoratlash jarayoni, tilshunoslik sohasida faoliyat yurituvchi olimlar va tadqiqotchilar tomonidan ko'plab bosqichlarda atroflicha va sistemali ravishda tahlil qilinib kelmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ushbu mavzuda quyidagi xorijiy olim va tadqiqotchilar ilimiy ishlar olib borgan (Justina Diaz-Legaspe, Kanit Mitinunwong Sirichan, Elisabeth Camp, Bianca Cepollaro, Mihaela Popa-Wyatt, Leopold Hess, Francesca Panzeri, Eleonore Neufeld va boshqalar).

Haqoratlash, o'zining ko'p qirrali namoyon bo'lish shakllari bilan, turli ijtimoiy va madaniy kontekstlarda farq qiluvchi xususiyatlarni namoyish etadi. Ushbu hodisaning eng ko'zga ko'ringan ko'rinishlaridan biri "Slur" (nafsoniyatiga tegish) hisoblanadi. Slur (nafsoniyatiga tegish) atamasi,

ma'lum bir shaxs yoki guruhning etnik kelib chiqishi, millati, jinsiy identifikatsiyasi, jinsiy qarash, dini yoki boshqa muhim xususiyatlari asosida ularni haqorat qilish yoki kamsitish maqsadida ishlatiladigan salbiy ifodalarni o'z ichiga oladi.

Oksfod izohli lug'atiga ko'ra, *slur* *somebody/something to harm someone's reputation by making unfair or false statements about them* ya'ni biror kishining yoki narsaning obro'siga nohaq yoki yolg'on bayonotlar bilan putur yetkazish [25].

J. Diaz-Legaspening fikriga ko'ra, nafsoniyatga tegish (slur)-bu shaxslar yoki guruhlarini ajratib, ijtimoiy tengsizliklarni kuchaytiruvchi zararli iboralar. Shuningdek u haqoratlash, nafsoniyatga tegishni ifodalovchi birliklarni ikki guruhga ajratadi: haqoratomuz emas, ammo ranjitishi mumkin bo'lgan so'zlar va haqoratomuz deb qaralishi mumkin bo'lgan ifodalar [6].

Kanit Mitinunwong Sirichan o'zining ishida haqoratlashni 3 xil kontekstda: Salbiy jumlar, bilvosita nutq va o'zaro ishorali kontekstlar orqali ifoda etilishini takidlagan [17,249-250].

Haqoratlash- bu shaxslarga ularning taxminan irqiy kelib chiqishi, geografik joylashuvi yoki jinsiy moyilligi asosida nafrat va yomon munosabatni bildirish maqsadida ishlatiladigan haqoratli iboralar [3].

Leopold fikricha insonning dini, kelib chiqishi, jinsiy qarashi irqi va shunga o'xshash holatlarda ifoda etilgan fikrlar

haqoratlash deyiladi va ular haqoratlashning yuqori darajasini ifodalaydi [10]. Lena haqoratlashni tabu so'zlar sifatida tariflaydi va uni sosiolingvistik hamda gender xususiyatlari bo'yicha tahlil qiladi [13].

Leopold Milosz Hess o'zining ilmiy ishida haqoratlar muayyan munosabatlar, hissiyotlar va ijtimoiy yo'nalishlarini qanday qilib ifodalashda rol o'ynashi va tilning qarashlarni shakllantirishdagi kuchini va haqoratli atamalarining ijtimoiy ta'siriga oid tushunchalarni taqdim etadi [11].

Shu bilan birgalikda so'kish orqali haqoratning kuchli darajasi ifodalanadi.

Webster izohli lug'atida **so'kish** bu haqorat yoki nojo'ya so'zlar ishlatish deya izohlanadi (swear- to use profane or obscene language) [26].

So'kish - har qanday berilgan ijtimoiy kontekstda haqoratli, noo'rin, norozi qiluvchi yoki qabul qilinmaydigan bo'lishi mumkin bo'lgan so'zlarning ifodalanishi sifatida tavsiflanadi [18].

Dynel so'kish va beodoblik haqida "til shakllari o'zi muloyim yoki nomuloyim bo'lmaydi" deb takidlaydi [9]. Biroq Stapleton so'kishning kuchli salbiy bo'yoqqa ega ekanligi va muayyan norozilik tuyg'usini shakllantirishi uni odamlar o'rtasidagi munosabatlarda juda salbiy ta'sir qilishini aytadi [19]. Allanning izohlashicha, so'kish g'azab yoki nafrat kabi salbiy hissiyotlarni ifodalash yoki kuchaytirish uchun ishlatiladigan vositadir, va so'kishning ba'zi shakllari boshqalarni to'g'ridan-to'g'ri haqorat qilish yoki suiste'mol qilish uchun ishlatilishi mumkin [1].

So'kish, ataylab haqorat qilish niyatida, so'zlarning o'zining tabu, uyatli va hissiy xususiyatidan foydalanib, nomuloyimlik sifatida ishlatiladi. Ayrim so'kish so'zlari bevosita haqoratlar sifatida yoki dushmanlik yoki boshqa salbiy munosabatlarni ifodalash usuli sifatida ishlatilishi mumkin [15].

Erofeyevaning tadqiqotlariga asoslanib, haqorat ifodalanishining to'rt bosqichi aniqlangan:

1. To'g'ridan-to'g'ri haqorat qilish bu bevosita shaxsni kamsitish.

2. Bilvosita haqorat, bu qayerdadir ma'nosini berkitib, ammo salbiy niyatni anglatuvchi uslub.

3. Ijibiy ma'noga ega so'zlarni salbiy yoki haqorat omili sifatida qo'llash; bu juda nozik usul bilan raqibni nishonga olishni anglatadi.

4. Keskin tanqid yoki ta'na qilish, bu esa odatda raqibni obro'sizlantirishga qaratilgan.

Bu bosqichlar, haqorat ifodasining qanchalik murakkab va ko'p qirrali ekanligini namoyish etadi [23].

Romazanova olib borgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, haqoratlar insonlarga laqab qo'yish jarayonida ham o'z ifodasini topishi mumkin. Bu jarayon, odamlar bir-birlariga o'ziga xos nomlar berish orqali o'zaro munosabatlarni ifodalashlarida muhim rol o'ynaydi [16].

D.M. Koliadov nutq harakatini haqorat sifatida tasniflash masalasini ko'rib chiqadi, bu jarayon nutqiy harakat orqali shaxsning sha'n va qadr-qimmatiga nomaqbul tarzda zarar yetkazilishini belgilashga qaratilgan [14].

E.Yu. Sidorova o'z tadqiqotida pragmatik lingvistik doirasida og'zaki agressiyaning mohiyatini ochib beradi, uni nutqiy harakatlar yordamida sistemali ravishda tasniflaydi. Ushbu ishda agressiya, ayniqsa haqorat sifatida, o'zining kuchli ifodaliligi bilan ajralib turadi. Tadqiqot to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita agressiv harakatlarni ajratib ko'rsatadi hamda agressiyaning maqsadi va uning ta'sirini chuqur tahlil qilishda nutqiy kontekstning muhimligini qayd etadi [4].

O'zbek tilshunosligida ham quyidagi olim va tadqiqotchilar (S. Atamuratov, D. Samarov, S. Muminov, M. Yuldashev, D. Avezmuratova va h.z.)ning ishlarida ushbu mavzuga oid izlanishlarga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Yo'ldoshevning takidlashiga ko'ra, kamsitish va haqorat kabi bir qator ifoda semalari vulgarizmlarda juda aniq ifoda etilishini namoyon bo'ladi [24].

D.Avezmuratova hazil janri orqali salbiy ekspressivlikni ifolanishi haqida ma'lumotlar keltirib o'tgan, unga ko'ra, hazilning salbiy tomonlari ham bor: u xafa qilishi, haqorat yoki masxara qilishi, shuningdek tinglovchiga nisbatan ishonchsizlik, qo'rquv, rashk yoki hasad kabi salbiy his-tuyg'ularni keltirib chiqarishi mumkin [2].

Tadqiqot metodologiyasi. Haqoratlash, nutqning kuchli ta'sir qiluvchi bir shakli sifatida, salbiy va haqoratomuz so'zlar bilan amalga oshiriladi. Ushbu jarayonning asosiy maqsadi shaxslar yoki guruhlar obro'sini pasaytirish va ularni jamiyat ko'zida kichiklashtirishdan iborat. Haqoratlash, o'zining turli madaniy va ijtimoiy kontekstlarda namoyon bo'lish xususiyatlari bilan, tilning boy va ko'p qirrali imkoniyatlaridan samarali foydalanadi. Shu orqali ifodalanadigan salbiy ma'nolar, til birliklarining xilma-xil usullari bilan qo'llanilishi orqali yanada aniqroq va chuqurroq ta'sirga ega bo'ladi. Bu haqoratlashning nutq madaniyatimizdagi muhimligini o'rnini va so'zlarimiz tuyg'ularimiz ustida qanchalik kuchli ta'sir qilishi mumkinligini namoyish etadi.

Tahlil va natijalar. Bundan tashqari, yuqoridagi nazariy g'oyalarni ikkala tildagi misollar bilan tahlil qilishni tadqiqotimiz talab qiladi.

Ikkala til ham **haqoratlash** kuchli ekspressivlikni o'z ichiga oladi. Bu so'zlar yoki iboralar odatda norozilik, g'azab yoki haqorat kabi kuchli his-tuyg'ularni ifodalaydi. Ingliz tilida, **idiot** so'zi bir kishining aqliy qobiliyatlarini so'roq ostiga olish niyatida qo'llaniladi. *I knew I'd been an idiot to stay there*[28]. *"Hold your tongue, you doting idiot!" said the matron sternly*[7;159]. O'zbek tilida esa, **aqlidan ozgandegan** ibora shu maqsadda ishlatilib, bu orqali bir kishining aqlini shubha ostiga qo'yish niyat qilinadi. *Onang aqlidan ozibdi, qizim, ol, yig'ishtirib qo'y bularni! (I. Rahim- Chin muhabbat)*[22, 42].

Ingliz va o'zbek tillarida tabu deb qaraladigan mavzularni aks ettiruvchi so'zlar yordamida haqoratlash usulini qo'llaydi. Bunday tabu mavzular ko'pincha jinsiyat, gender, etnik kelib chiqish va diniy e'tiqodlar kabi nozik masalalarga tegishli bo'ladi. Ushbu mavzular jamiyatda muayyan cheklovlar va ehtiyotkorlik bilan qaraladi, shuning uchun ular haqida so'z yuritish yoki ularni haqoratlash maqsadida ishlatish katta norozilik yoki ziddiyat keltirib chiqarishi mumkin. *«Kofir bo'lding, payg'ambarimiz zamonidan to shu vaqtgacha hech bir musulmon ayol senchalik gunohga botgan emas».* *Oybek. Oltin vodiyaning shabaddalar* [22;179]. Biror kishini **kofir (infidel)** deb atash, din bilan bog'liq haqorat bo'lib, u jiddiy tabu hisoblanadi.

Ikkala tilda ham tabu hisoblanadigan so'zlar doirasi turlicha. Ingliz tilida jinsiy aloqaga oid so'zlar ko'pincha haqorat sifatida ishlatilsa, O'zbek tilida oilaviy munosabatlar va nasil-nasabga oid masalalar ham ko'proq tabu hisoblanadi.

Har bir tilda foydalanadigan so'z va iboralari o'zining madaniy tushunchalariga ega hisoblanadi, shu jumladan haqoratlash ham[5]. Masalan, Ingliz tilida keng tarqalgan ba'zi haqoratlar O'zbek tilida uchramasligi mumkin yoki aksincha.

O'zbek tilidagi **latta**: Bu so'z, odatda, bir kishini yoki uning qilgan kishini past baholash maqsadida ishlatiladi. Bu haqorat Ingliz tilida to'g'ri muqobili yo'q, chunki uning ma'nosi va ishlatilish darajasi O'zbek madaniyatiga xosdir. *Nizomning boshi egildi. -Yigit kishi ham shunaqa latta bo'ladimi!* [21;24]

Ingliz tilidagi **jerk**: Bu so'z, asosan, norozi qiluvchi yoki yoqimsiz shaxsni ifodalash uchun ishlatiladi. Bu so'zning O'zbek tilida aniq bir muqobili yo'q, chunki har bir madaniyat o'zining norozi qiluvchi shaxslarni ta'riflash uslubiga ega. *"Come, don't lag behind already, Lazy-legs!" Mr. Sikes*

accompanied this speech with a jerk at his little companion's wrist.[7; 143]

Quyida yana bir nechta misollar bilan ko'rib chiqishimiz mumkin:

Ayrim o'zbek badiiy adabiyotlaridan quyidagi misollar: "jalab, — Chiq, Zaynab, chiq! — dedi ul ham, — la'nat sendek xoting'a! deb baqirdi" (A.Qodiriy) [27; 218]; "Azizbek qarshisida qo'l bog'lab turg'an darboza begig'a baqirdi: — Nega qarab turasan, darboza ustiga chiq, kim ekan u it?!" (A. Qodiriy) [27; 48]; "makkor, insofsiz; yaxshiligni bilmagan haromzoda" (A. Qodiriy) [27; 97]; "Qanjiqlar! — deb baqirdi!" [21; 19]; "Endi esingga keldimi, itvachcha!.. — deb baqirdi mingboshi." [21; 149]; Muridlar istig'for aytib so'fni qarg'adilar. — Tiling qursin, tiling uzilsin! [12;293]; - Joningdan umidingni uz, jallod! - deb baqirdi Azizxon." [17; 149]; "Ikromjon unga qarab qahr-g'azab bilan qichqirardi: — Xoin! Qochoq! Nomard! Hezalak! Iflos! It! Tur o'rningdan!" keltirib o'tildi [21; 431].

Ingliz adabiyotlarida esa quyidagi misollarni keltirib o'tish mumkin.

"So, you mistake your husbands. —Begin, murderer pox, leave thy damnable faces, and; begin. Come: the croaking raven doth bellow for revenge." this effaces Hamlet's insult to womanhood.[20;123]; "'Damn you!" cried the desperate ruffian, throwing up the sash and menacing the crowd." [7;350] ; "Hold your tongue, sir," said Mr. Fang. Here, swear this policeman" [7;66]; "Now, I ask you, you blundering booby," said my guardian, very sternly [8;115].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Ingliz va O'zbek tillarida haqoratlashni tahlil qilish, har ikkala tilning ham o'zaro o'xshash va farqli jihatlariga ega ekanligini ko'rsatadi. O'xshashliklar asosan haqoratlashning salbiy bo'yodkorligini va jamiyatdagi tabularni o'z ichiga oladi. Farqlar esa, asosan, har bir tilning madaniyati va jamiyat tuzilishiga bog'liq bo'lib har ikki tilda turlicha namoyon bo'lishi mumkin.

ADABIYOTLAR

- Allan, Keith, 2015. When is a slur not a slur? The use of nigger in 'Pulp Fiction'. Lang. Sci. 52, 187-199.
- Avezmuratova, Diyora. "Ingliz va o'zbek tillarida hazil nutqiy janri tadqiqiga oid lingvistik masalalar." news of uzmu journal 1, no. 1.2 (2024): 299-301.
- Cella, Federico. "Slurs: semantic content, expressive content and social generics." Phenomenology and Mind 11 (2016): 141
- Сидорова, Елена Юрьевна. "Вербальная агрессия как коммуникативно-прагматическое явление." Вестник Томского государственного университета 319 (2009): 28-31.
- Crystal, David. English as a global language. Cambridge university press, 2003.P-1-62
- Diaz-Legaspe, Justina. "What is a slur?." Philosophical Studies 177, no. 5 (2020): 1401-1402
- Dickens, C. (1992). *Oliver Twist*. Wordsworth Editions.
- Dickens, C. (1992). *Great Expectations*. Wordsworth Editions.
- Dynel, Marta, 2012. Swearing methodologically: the (im)politeness of expletives in anonymous commentaries on YouTube. J. Engl. Stud. 10, 26
- Hess, Leopold. "Slurs: Semantic and pragmatic theories of meaning." The Cambridge handbook of the philosophy of language (2022): 452
- Hess, L. M. "Perspective and Word Choice. A Study of Expressives, Slurs, and Narrative." PhD diss., sl: sn, 2019.
- "Кеча ва Кундуз". -Т.:«ШАРҚ», 2007.
- Kremin, Lena VL. "Sexist swearing and slurs." *Editors-in-chief* (2017): 18.
- Колядов, Дмитрий Михайлович. "Прагматика оскорбления: интеракционный подход к унижению чести и достоинства." *Acta Linguistica Petropolitana. Труды института лингвистических исследований* 1, no. XV (2019): 164-183.
- O'Driscoll, Jim, 2020. *Offensive Language: Taboo, Offence and Social Control*. Bloomsbury Academic, London.
- Ромазанова, О. В. "Прагматика прозвищ как средств адресации в английском и татарском языках." *Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук* 4-1 (2015): 379-381.
- Sirichan, Kanit Mitinunwong. "THE DIRECT REFERENCE THEORY OF PEJORATIVES IN HATE SPEECH." *Philosophia: International Journal of Philosophy* 22, no. 2 (2021). P-249-250
- Stapleton, Karyn, and Kristy Beers Fägersten. "Swearing and interpersonal pragmatics." *Journal of Pragmatics* 218 (2023): 147-152.
- Stapleton, Karyn, Beers Fägersten, Kristy, Stephens, Richard, Loveday, Catherine, 2022. The power of swearing: what we know and what we don't. *Lingua* 277, 1-13.
- Shakespeare, William, 1564-1616 author. *The Tragedy of Hamlet, Prince of Denmark*. [London] :The Folio Society, 1954.
- "Уфк" романи. -Т.: Саъно стандарт, 2016.
- Ўзбек тилининг фразеологик луғати. -Т.:Ғофур Ғулом, ЎзР ФА Алишер навойи номидаги тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети, 2022. -Б.179
- Ерофеева, Елена Владимировна. "Речевой акт оскорбления как коммуникативный ход инвективной стратегии во французском дискурсе." *Филологические науки. Вопросы теории и практики* 11-2 (2013): 96-98.
- Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоетик таҳлили асослари. Тошкент, 2007 йил. 60-бет.
- https://www.oxfordlearnersdictionaries.com/definition/english/slur_1
- <https://www.merriam-webster.com/dictionary/swear>
- https://elibrary.namdu.uz/84%20Badiy%20adabyot%20asarlar/a_qodiriy_utgan_kunlar_namdu_uz.pdf
- <https://www.collinsdictionary.com/dictionary/english-thesaurus/idiot>